



## **O'TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” ASARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI.**

**Ergasheva Mashxura Inomjon qizi**

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti  
Kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 2- kurs talabasi  
mashxuraergasheva741@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” asarining leksik xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda xalqona so'z va iboralarining qo'llanishi, emotsional birliklarning o'rni, sinonim va antonim so'zlarning badiiy vazifasi yoritilgan. Tadqiqot natijasida asarning til boyligi, yozuvchining uslubiy mahorati va o'zbek tilining leksik imkoniyatlarini namoyon etishdagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** xalqona so'z, emotsional birlik, sinonim, antonim, leksik xususiyat.

O'zbek adabiyotining zabardast vakili, ko'plab asarlari bilan xalqning ko'nglidan joy ololgan, betakror yozuvchimiz O'tkir Hoshimovdir. U o'z asarlari orqali xalqning qalbi, hayoti va orzu-armonlarini samimiyat bilan tasvirlaydi. Yozuvchining mashhur asarlaridan biri “Bahor qaytmaydi” qissasi insoniy tuyg'ular, muhabbat, dard, afsuslanish, alam kabi hissiyotlarni aks ettiradi. Asarning badiiy kuchi nafaqat voqealar rivojida, balki undagi so'zlarning leksik xususiyatlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Asarda xalqona so'zlar va iboralar, emotsional so'zlar, sinonimlar va antonimlar keng ishlatiladi.

Asar qahramonlarining nutqi oddiy xalq tiliga yaqin. “onaizor”, “bolajon”, “peshonasi sho'r”, “yuragi ezildi”, “rangi quv o'chdi”, “baland gavdasini g'oz tutmoq” kabi ibora va so'zlar xalqona bo'lib, asarda hayotiylikni aks ettiradi. Asarning asosiy mazmuni inson ruhiyati bo'lganligi uchun unda ko'plab hissiy bo'yoqdor so'zlar qo'llangan. Masalan: umid, yolg'izlik, quvonch, dard, armon, muhabbat, sotqinlik kabi birliklar qahramonlarning ichki dunyosini ifodalaydi.

Til birliklarining ayni bir ma'noni anglatishi asosida guruhlanishi sinonimiyadir. Sinonimiya lug'aviy birliklarda ham, grammatik birliklarda ham mavjud va shu jihatdan ular ikki xil;

1. Lug'aviy sinonimiya - lug'aviy birliklarning o'zaro sinonim bo'lishi: quyosh, kun; yugurmoq, chopmoq kabi;

2. Grammatik sinonimiya - grammatik birliklarning o'zaro sinonim bo'lishi: -yap, -yotir (o'qiyapman, ovqiyotir) kabi.

Lug'aviy sinonimiyalar esa uch xil:

1. Leksik sinonimiya - leksik birliklarning o'zaro sinonim bo'lishi; ayyor, quv, makkor.

2. Frazologik sinonimiya - frazeologik birliklarning o'zaro sinonim bo'lishi; ilonning yog'ini yalagan, burganing ko'zini ko'rgan.

3. Leksik- frazeologik sinonimiya - leksik va frazeologik birliklarning o‘zaro sinonim bo‘lishi; osongina, xamirdan qil sug‘urganday.<sup>1</sup>

Asardagi sinonimlar nutqni yanada boyitadi. Asarning bosh qahramoni Muqaddamni tasvirlashda yozuvchi sinonimik qatordan foydalanadi. “Silliq, xushbichim yuzi, uzun qayrilma kipriklari uni yanada go‘zal, chiroyli, jozibador ko‘rsatardi.”. “Keyin begunoh ko‘zlarini Alimardondan uzmay o‘sha past, mayin va o‘ychan ohangda gapirdi.” (O‘. Xoshimov. Bahor qaytmaydi)

Yozuvchi leksik - frazeologik sinonimiyalardan ham keng foydalangan. “Chehrasi yorishib ketdi- xursand bo‘ldi, yuzlari lovillab ketdi- hijolat bo‘ldi, yuragi orqaga tortdi- qo‘rqdi, ko‘ziga yosh keldi-yig‘ladi.”

Sinonimlar bilan bir qatorda asarda antonimlar ham yetarlicha joy olgan.

Til birliklarining o‘zaro zid munosabatdagi ma‘nolarni anglatish asosida guruhlanishiga antonimiya deyiladi. Sinonimiyada ikki va undan ortiq til birligi qatnasha olsa, antonimiyada faqatgina ikki til birligi qatnashadi, chunki bunday munosabat biri ikkinchisining aksi bo‘lgan voqelikni nomlaydigan, ifodalaydigan til birliklari orasidagina voqe bo‘ladi. Xuddi sinonimiya kabi antonimiyani ham ikki guruhga ajratamiz.

1. Lug‘aviy antonimiya - lug‘aviy birliklarning o‘zaro antonim bo‘lishi; novcha-pakana, bo‘shang-olg‘ir kabi.

2. Grammatik antonimiya - grammatik birliklarning o‘zaro antonim bo‘lishi; -dan, -ga (uyga, uydan). Morfemalar antonimiyasi asosan leksema yasovchilarga to‘g‘ri keladi. Misol uchun: o‘rinli- o‘rinsiz, hisobli-hisobsiz, bama‘ni-bema‘ni kabi.

Lug‘aviy antonimiya ham uch xil bo‘lib:

1. Leksik antonimiya - leksemalarning o‘zaro antonim bo‘lishi: ertalab-kechqurun, kelmoq- ketmoq kabi.

2. Frazeologik antonimiya - frazemalarning o‘zaro antonim bo‘lishi: oq ko‘ngil va ichi qora, qo‘li ochiq va tutunini bulut ko‘rmas kabi.

3. Leksik - frazeologik antonimiya: leksema bilan frazema orasidagi antonimlik; xafa – boshi osmonda.<sup>2</sup>

“Sevgi-nafrat”, “hayot- o‘lim”, “umid- umidsizlik”, “jasurlik-qo‘rqoqlik”, “xoinlik- sodiqlik” kabi leksik antonimiyalar qissada ko‘plab uchraydi.

“Alimardon o‘z ovozi o‘zi cho‘chib uyg‘onib ketdi. Anchagacha qayerda yotganini bilmay, ko‘zlarini katta-katta ochgancha shiftga tikilib qoldi. U anchagacha behush tikilib yotdi-da, vassajuftlari sarg‘ayib ketgan shiftni, tokchadagi lagan - tovoqlarni ko‘rib uyida ekanligini angladi. Anvar kelmayotganini ko‘rib, yuragi siqildi. ...Yana ko‘zi ilinayotgan edi, gurs - gurs qadam tovushi eshitildi. Alimardon ko‘rpani ko‘tarib qaraguncha, allakim deraza yonidan lip etib eshik tomonga o‘tib ketdi.

“Anvar!”- Alimardon eshikning ochilishini kutib burilib qarab yotdi. Alimardon undan xafa bo‘lsa-da, uning kelganini ko‘rib, ko‘ngli yorishdi. (O‘. Xoshimov. Bahor qaytmaydi)

---

<sup>1</sup> Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.108.

<sup>2</sup> Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.120.

Alimardon va Anvarni ham antonimik ruhda qo‘ysak bo‘ladi. Birida haqiqiy do‘stlik, ishonch, vijdonlilik aks etsa, boshqasida xuddi shularning aksi.

Yozuvchi leksik- frazeologik antonimiyalar ham qo‘llanadi. “Og‘zi qulog‘ida – xafa”, “yuragi orqaga tortdi- jasur” kabi birliklar ham asarni boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, “Bahor qaytmaydi” asari – o‘tgan yoshlikka sog‘inch, inson qalbidagi ezgulik va armonni ifodalovchi, frazeologik boyligi va so‘zlarning leksik jihatdan kengligi bilan o‘zbek adabiyotining durdona asarlaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hoshimov O‘. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. –294 b.
2. Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 398 б.